ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-5

NEUSTOYKA SHAKLLARI

Toshkent davlat yuridik universiteti
Xususiy huquq fakulteti 3-bosqich talabasi
Ro'zimboyeva Kumushoy
Rozimboyevakumush34@gmail.com

Annotatasiya: Ushbu maqolada neustoyka tushunchasi, uning qo'llanilish sohasi, neustoyka turlari tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada Rossiya, Germaniya, Fransiya, Gollandiya qonunchiligi ham o'rganilib, olimlarning nazariy fikrlari qiyosiy tahlil qilingan.
Kalit so'zlar: neustoyka, muqobil neustoyka, alohida neistoyka, jarimali neustoyka.

Forms of Penalties

Ro'zimboyeva Kumushoy
Tashkent State University of Law
Faculty of Private Law
3rd-year student
Rozimboyevakumush34@gmail.com

Annotation: This article examines the concept of penalties (neustoyka), their scope of application, and different types. Additionally, the article provides a comparative analysis of the legislation of Russia, Germany, France, and the Netherlands, along with a review of theoretical perspectives from various scholars.
Keywords: penalties, alternative penalties, separate penalties, fine penalties.

Формы неустойки

Рузимбоева Кумушой
Ташкентский государственный юридический университет,
факультет частного права, студентка 3-го курса
Rozimboyevakumush34@gmail.com

Аннотация: В данной статье рассматривается концепция неустойки, еообласть применения и различные виды. Кроме того, проводится сравнительный анализ законодательства России, Германии, Франции и Нидерландов, а также рассматриваются теоретические взгляды различных ученых.
Ключевые слова: неустойка, альтернативная неустойка, отдельная неустойка, штрафная неустойка.

Bilamizki**,** fuqarolik kodeksining majburiyatlarni bajarishni ta'minlashning qat'iy normalarni o'rnatishi qarzdor zimmasida bo'lgan majburiyat belgilangan muddat davomida bajarilmasa, kreditorda ziyonlarni undirishga qaratilgan huquq paydo bo'lishini anglatadi. Majburiyatlarni bajarilishi ta'minlash deb, qarzdor tomonidan olingan va uning zimmasida bo'lgan vazifani bajarishga majbur qiladigan choraga aytiladi. Majburiyatlarni bajarilishini ta'minlash har xil usullar bilan ta'minlanadi. Rim huquqshunoslarini fikricha, majburiyatning bajarilishi ta'minlash zakalat, kafolat, garov va neustoyka usullaridan iborat bo'aldi. Ushbu tahliliy materialda majburiyatlarni bajarilishi ta'minlashning keng tarqalgan usullaridan biri sifatida neustoyka haqida ma'lumot berib o'tamiz.

Neustoyka tushunchasi tarixi.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-5

“Sivilistikada neustoyka ildizi qadimgi Rim huquqiga borib taqaladi. Neustoyka (stipulatio poenae) deganda rim yuristlari shartnomani buzgan shaxsning zarar ko‘rgan tomon foydasiga jarima to‘lash majburiyatini nazarda tutuvchi shartli kelishuvni tushunganlar. O‘rta asrlardagi rus huquqiy manbalarida neustoyka (jarima va foizlar)ning sinonimlari sifatida “penya”, “vira”, “rost”, “gostines” va boshqalar ham amal qilgan. Keyinchalik “ustoyat” (“tik turmoq”) fe'lining negizida yangi so‘z — “ustoyka” yasalgan va u va'dani bajarishni anglatgan. Va'dani bajarishning antomi sifatida “neustoyka” so‘zi ishlatila boshlangan. Dastlab “neustoyka” atamasi majburiyatning bajarilmagani bilan bog‘liq bo‘lgan mulkiy oqibatlarni emas, balki majburiyat amalda bajarilmaganini anglatgan.[1]” **Qonunchilik**. Neustoyka majburiyatlarning bajarishni ta’minlashning ommabop va samarali usullaridan biri hisoblanadi. Fuqarolik kodeksining ning 260-moddasida neustoyka tushunchasiga ta’rif berilgan. Unga ko’ra qonunchilik yoki shartnoma bilan belgilangan, qarzdor majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda kreditorga to‘lashi shart bo‘lgan pul summasi neustoyka hisoblanadi. Neustoyka to‘lash haqidagi talab bo‘yicha kreditor o‘ziga yetkazilgan zararni isbotlashga majbur emas. Neustoyka bilan faqat haqiqiy talab ta’minlanadi. Agar qarzdor majburiyat bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi uchun javobgar bo‘lmasa, kreditor neustoyka to‘lashni talab qilishga haqli bo’lmaydi. Neustoyka jarima yoki penya shaklida bo’ladi. Qarzdor majburiyatlarni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan hollarda to‘laydigan va qat’iy pul summasida hisoblanadigan neustoyka **jarima** hisoblanadi. Qarzdor majburiyatlarning bajarilishini kechiktirib yuborganida to‘laydigan va o‘tkazib yuborilgan muddatning har bir kuni uchun majburiyatning bajarilmagan qismiga nisbatan foiz bilan hisoblanadigan neustoyka **penya** hisoblanadi. Neustoykaning qaysi shakli qo’llanilishi shartnoma erkinligi prinsipiga ko’ra taraflar tomonidan belgilanadi va neustoyka to’g’risidagi kelishuv yozma tuzilishi kerak. Agar taraflar shartnomada neustoykani kelishmagan bo’lsalar ham kreditor neustoyka to’lashni talab qilishga haqli hisoblanadi va uning miqdori qonunga ko’ra belgilangan.

Jumladan, **“Xo’jalik yurituvchi subyektlarning shartnomaviy-huquqiy bazasi”** to’g’risidagi qonunda qonuniy neustoyka miqdorlari keltirilgan. Masalan, tovarlarni yetkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborganlik, to‘liq yetkazib bermaganlik, ishlarni bajarmaganlik yoki xizmat ko‘rsatmaganlik uchun, sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo‘lmagan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib berganlik uchun, but bo‘lmagan tovarlarni yetkazib berganlik uchun, tovarlarni marka belgisisiz, shuningdek tovarni idishsiz yoki o‘ralmagan holda yetkazib berganlik uchun, akkreditivdan foydalanmaganlik uchun, to‘lov, tovar-transport hujjatlarini yuborishni kechiktirganlik uchun, tovarlarni tanlab olmaslik yoki uni rad etganlik uchun, tovarlar (ishlar, xizmatlar) haqini to‘lamaganlik yoki o‘z vaqtida to‘lamaganlik uchun javobgarlikda neustoykaning qonunda belgilangan miqdorlari ko’rsatilgan. Qonuniy neustoykada tomonlar o’zlarining kelishuvlarida qonunda belgilanganidan yanada katta miqdorni belgilashlari mumkin, ammo e’tibor qaratish mumkin bo’lgan jihat shundaki agar qonun imperative norma sifatida neustoykaning miqdorini belgilagan, ammo shartnomada bundan kichik miqdor belgilangan bo’lsa, u o’z-o’zidan haqiqiy emas hisoblanadi.

Neustoykaning bir turlaridan biri jarima hisoblanadi. Odatda jarima qat’iy belgilangan pul summasida hisoblanib, bir marta undiriladigan va majburiyatlarning qarzdor tomonidan bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi oqibatida qat’iy summada to’lanadi. Biroq bazi hollarda oldindan

[1] [1] Одинаев, А. С. Неустойка қўллашга оид фуқаролик-ҳуқуқий қонунчиликни такомиллаштириш / А. С. Одинаев. —

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

belgilangan qiymatga mutanosib foizlar shaklida bo'lishi ham mumkin. Masalan, qarzdor muddatida bajarmagan ishninh qiymatidan 5 foiz miqdorda bo'lishi mumkin.

Neustoykaning ikkinchi turi penya hisoblanadi. Penya majburiyatlarni kechiktirib yuborilganda to'lanadi har bir kun uchun muayyan vaqt yoki butun kechiktirib yuborilgan vaqt davomida hisoblanadi. Penya majburiyatlarning bajarilmagan qismiga nisbatan qo'llaniladi va foizlar bilan belgilanadi. Masalan, kechiktirilgan har bir kun uchun uni bajarish paytigacha bajarilmagan majburiyat qiymatidan 5 foiz miqdorda belgilanishi mumkin.

Ana endi neustoyka to'g'risidagi krlishuvninh shakliga to'xtalib o'tamiz. FKning 262-moddasiga muvofiq neustoyka to'g'risidagi kelishuv yozma shaklda tuzilishi kerak va u shartnioma shartlaridan biri sifatida kiritilishi yoki neustoyka bilan taminlangan majburiyatdan alohida ham tuzilishi mumkin. E'tibor qaratishimiz lozim bo'lgan jihat shundaki, neustoyka to'g'risidagi kelishuvning yozma shakliga rioya qilmaslik uning haqiqiy emasligiga olib keladi.

Nazariy tahlil. Neustoykani batafsil ravishda olimlar fikriga tayanib tahlil qilib o'tamiz. Qonunchilikka ko'ra neustoykaning 2 ta shaklda bo'lishi ko'rsatilgan. Ya'ni jarima va penya. Zakirovning nazariyasida esa uning to'lash shakllaridagi turlari batafsil yoritilgan. Ya'ni neustoykaning qonunchilikkka ko'ra 4 ta turi mavjud. Bular:

- hisobga o'tkaziladigan neustoyka,
- jarimali neustoyka,
- alohida neustoyka
- muqobil neustoykadir.

Hisobga o'tkaziladigan neustoyka**.** Bunda majburiyat bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan taqdirda zararning neustoyka bilan qoplanmagan qismi to'lanishi ko'rsatilgan. Bunday neustoyka ko'pincha tashkilotlar o'rtasida tuziladigan va ko'pincha nahsulot yetkazib berish va qurilish pudrati shartnomalarida ommalashgan.

Jarimali neustoyka. Neustoykaning ushbu turida majburiyat bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan taqdirda bir vaqtning o'zida ham neustoyka, ham yetkazilgan zarar miqdori to'liq undirilishini nazarda tutadi. Masalan, mahsulot oluvchiga sifatsiz yoki butsiz mahsulot yetkazib berilgan taqdirda undan belgilangan ravishda ham neustoyka va bundan tashqari ko'rilgan zarar ham qoplanishi kerak.

Alohida neustoyka. Bunda FKning 325-moddasiga ko'ra kreditorga zararni undirish emas, faqat neustoykani olish huquqi belgilanadi. Majburiyatlarni bajarilishini kechiktirganlik uchun belgilangan alohida neustoyka penya shaklida belgilanadi. Masalan, Vazirlar Mahkamasining 383-sonli qarori bilan atsdiqlangan "Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtituvchilar bilan tayyorlov, xizmat ko'rsatish tashkilotlari o'rtasida shartnomalar tuzish, ularni ro'yxatdan o'tkazish bajarish, shuningdek, ularni bajarish monitoringininolib boorish tartibi to'g'risidagi nizomning 67-bandiga ko'ra kontraktatsiya shartnomasi bo'yicha qishloq xo'jaligi mahsulotlarini belgilangan assortiment, vaqt va turlari bo'yicha asossiz bo'yin tovlagan xo'jalik tayyorlovchiga topshirilgan majburiyat qiymatining 25 foizi miqdorida neustoyka to'laydi.

Muqobil neustoyka esa kreditorga belgilangan neustoykani undirish va ko'rilgan zararni talab qilish huquqini beradi. Neustoykaning ushbu turi rag'batlabtiruvchi hisoblanadi va kreditor ko'rgan zararni qoplashni nazarda tutadi. Agar neustoyka miqdori kreditor ko'rgan zarardan oshib ketadigan bo'lsa, kreditor neustoykani talab qilishdan voz kechib, zararni talab qilishi ham mumin. Ammo neustoykaning ushbu xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidan kamdan-kam targ'ib etiladi.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-5

Neustoykaning barcha turlarini ko'rib chiqib, xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, neustoyka turlaridan jarimali neustoyka amalda ko'proq qo'llanuvchi neustoyka turlaridan biri hisoblanadi. Chunki, xo'jalik yurituvchi seubyektlarning shartnomaviy-huquqiy bazadi to'g'risidagi qonunida majburiyat bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan holllarda jarimali neustoykani to'lash belgilangan.

Xorijiy qonunchilik tahlili. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik qonunchiligi roman german huquq oilasiga mansubligi yuzasidan ko'pgina normalarning yaratilishi tarixi qadimgi Rim qonunshunosligi bilan bir xildir. Xususan, qadimgi Rimda ham neustoyka tushunchasi mavjud ekanligi va majburiyatlarni ta'minlashning bir turi sifatida qo'llanilganligi ko'rsatilgan.Xususan, Rim huquqi qo'llnmasiga ko'ra "neustoyka deb shartnomada belgilangan majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda kreditorga to'lashin shart bo'lgan summaga aytiladi. Kreditor uchun buning ikki tomonlama foydasi bo'lgan:

Birinchidan, bu bilan shartnoma bajarishi ta'minlangan.

Ikkinchidan, unga yetkazilgan zarar qoplangan.

Yustinian digestlarida bu jarimani to'lashga majbur qilish mumkin emasligi to'g'risida ko'rsatmalar berilgan. Ammo bu odat majburiyatni bajarmagan qarzdorlarga nisbatan qo'llanavergan. "

Rossiya qonunchiligiga ko'ra neustoykani so'rib chiqamiz.

По требованию об уплате неустойки кредитор не обязан доказывать причинение ему убытков. Обратим внимание, что согласно п.1 ст.394 ГК РФ, если за неисполнение или ненадлежащее исполнение обязательства установлена неустойка, то убытки возмещаются в части, не покрытой неустойкой (зачетная неустойка). Законом или договором могут быть предусмотрены случаи, когда допускается взыскание только неустойки, но не убытков (исключительная неустойка), или когда убытки могут быть взысканы в полной сумме сверх неустойки (штрафная неустойка), или когда по выбору кредитора могут быть взысканы либо неустойка, либо убытки (альтернативная неустойка).

Ya'ni Rossiya qonunchiligiga ham qaraydigan bo'lsak, ularda ham hisobga o'tkaziladigan neustoyka, jarimali neustoyka va alohida neustoyka turlari mavjud ekan. Ushbu jihatlarga ko'ra Rossiya fuqarolik qonunchiligi O'zbekiston fuqarolik qonunchiligiga o'xhsashdir.

Germaniya Civil Code ya'ni Fuqarolik kodeksida majburiyatlarni buzganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun jarima ya'ni neustoyka to'lash nazarda tutiladi.

"O'tmishda tadqiqotchilar sho'ro korxonalari o'rtasidagi fuqarolik-huquqiy munosabatlarda neustoykani kamaytirishni rad etib, faqat favqulodda hollarda yo'l qo'yilishi mumkin deb hisoblaganlar.

Fransiyada neustoyka sud tomonidan kamaytirilishi ham, ko'paytirilishi ham mumkin bo'lmagan (FFK 1152-moddasining birinchi xatboshisi). Neustoykani aynan bajarish (qo'llash)ni nazarda tutuvchi bu qoida dastavval Fransiyaning barcha sudlari tomonidan qo'llab-quvvatlangan va uzoq yillar mobaynida neustoyka institutiga nisbatan fransuzcha yondashuvning o'ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblangan.

Germaniya sud amaliyotiga ko'ra, ko'rilgan zarar neustoyka miqdoridan oz bo'lsa, sud uni "mos keluvchi miqdorgacha" kamaytirishi mumkin .

Gollandiya fuqarolik qonunchiligiga binoan, agar adolatni qaror toptirish zaruriyati shuni taqozo etishi ko'rinib turgan bo'lsa, neustoyka kamaytirilishi mumkin (Niderlandiya FKning 6:94-moddasi).

Odinayevning neustoyka qo'llashga oid maqolasida neustoykaning qo'llanilishiga doir bir qancha takliflar ham yoritib berilgan. Jumladan, mavzuga oid fuqarolik qonunchilikni takomillashtirishda bir

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-5

qator takliflar bildirish mumkin. Xususan, − neustoyka pul majburiyati bo‘libgina qolmay, muomaladan chiqarilmagan ashyolar (mol-mulk) ham neustoyka predmeti bo‘lishi mumkin va buni qonunchilikda mustahkamlash kerak; − neustoyka miqdorini kamaytirish sudning vazifasi bo‘lmasdan, tijorat majburiyatlari bo‘yicha zararlar va neustoykaning mutanosibligi hamda minimal chegarasi aniq belgilab qo‘yilishi lozim; − milliy qonunchilik texnikasi va bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida tuzilayotgan shartnomalar ruhiyatidan kelib chiqqan holda FKning 260, 261, 262 va 326-moddalaridagi “neustoyka” so‘zini “Lafzsizlik to‘lovi” “penya” so‘zini esa, “aybona” so‘zlariga almashtirish maqsadga muvofiqdir.

Neustoykani qo’llashda sud tajriblari va statistikasi.

Ozbeksiton Respublikasi sudlari tomonidan ko’rilgan ushlar, xususan, yuridik shaxslar va fuqarolar yoki har ikki taraf ham tadbirkorlik subyektlari bo’lgan taraflar o’rtasida majburiyatlarning bajarilishi bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan taqdirda sudlar tomonidan neustoyka qoidalarini qo’llash amaliyoti qo’llanmoqda va sud statistikasiga ko’ra neustoykaning jarimali neustoyka turi amaliyoti ko’proq amalda tadbiq etilishi ko’rsatilgan. Ammo bu sudlar uchun iimperativ xarakterga ega hisoblanmaydi. Majburiyatlarning turi, uni bajarish holatlari, hreditor va qarzdorning manfaatlaridan kelib chiqib neustoykaning qo’llash amaliyoti farqlanishi mumkin.

“O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudining Plenumi qarori bu qoidani amaliyotda qo‘llashda sudlar quyidagilarga e'tibor berishlari lozimligini belgilaydi: agar talab qilingan neustoykaning miqdori asosiy qarz miqdoridan oshib ketmagan taqdirda, sud tomonidan zarar hajmini aniqlamasdan talab qilingan summada undirilishi mumkin. Agarda neustoykaning summasi asosiy qarz summasidan ortiq bo‘lsa, sud da'vogardan zararning asosli ravishda zarar va neustoykaga mutanosibligini aniqlash uchun asoslantirilgan hisobni talab qilishi lozim. Ular mutanosib bo‘lmaganida, sud, sud amaliyotidan kelib chiqib, qarzdor tomonidan majburiyatlarning bajarilish darajasini, majburiyat-larda qatnashuvchi taraflarning mulkiy holatini, shuningdek kre-ditorning manfaatlarini hisobga olib, neustoykaning miqdorini asosiy qarz miqdorigacha kamaytirishga haqlidir. Agar neustoyka asosiy qarz summasidan oshib ketmasa-da, lekin uning qarzdor tomonidan to‘lanishi uning faoliyatini yomon oqibatlarga, hatto iq-tisodiy jihatdan nochor ahvolga olib kelishi aniq bo‘lgan holatda neustoyka kamaytirilishi mumkin. Bunday holatda neustoykaning eng kam miqdori Fuqarolik kodeksining 327-moddasida ko‘rsatil-gan foizlar miqdoridan kam bo‘lmasligi lozim[132]. Ammo sud hech qachon neustoykani to‘lashdan ozod qila olmaydi[2].

Sudlar tomonidan neustoyka barqaror ravishda qo’llanuvchi majburiyatlarni bajarishni ta’minlashnining samarali usullaridan biri hisoblanadi. Chunki neustoyka bilan kreditor manfaatlari to’liq ravishda qondiriladi va bozor munosabatlarida tavakkalchilik, tadbirkorlikning rivoji uchun katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

OYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Fuqarolik kodeksiga sharh.

2. Одинаев, А. С. Неустойка қўллашга оид фуқаролик-ҳуқуқий қонунчиликни такомиллаштириш / А. С. Одинаев.

3. Zokirov. Fuqarolik huquqi. Darslik. 1-qism. Toshkent 2009.

[2] [Zokirov. Fuqarolik huquqi. Darslik. 1-qism. Toshkent 2009.]”